Alitegin ibn Husayn

Alitegin ibn Husayn

(?–1035)

(1025-1034)

Movarounnahr ilikxoni. ***Qoraxoniylar***dan. Movarounnahrni samoniylardan tortib olishda ishtirok etgan (999-1012). ***Nasr ibn Ali*** vafoti (1013)dan so‘ng taxt uchun kurash chog‘ida arslonxonlardan *Muhammad ibn Ali* tomonidan asir olingan. Taxminan 1025 yilda asirlikdan qochib Buxoroni egallagan va saljuqiylardan ***Arslon ibn Saljuq*** bilan ittifoq tuzgan. Aliteginga qarshi ilikxon ***Mansur ibn Ali*** qo‘shin tortib kelgan, biroq mag‘lubiyatga uchragan. Shundan so‘ng Alitegin Mavorounnahrni markaziy qismi (Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo vodiysi) ilikxoni bo‘lgan. Aliteginga qarshi Mahmud G‘aznaviy va qoraxoniylarning Sharqiy Turkistondagi xoqoni Qodirxon Yusuf harbiy ittifoq tuzib (1025) Samarqand yaqinida Alitegin qo‘shini bilan to‘qnashgan. Alitegin Samarqand va Buxoroni tashlab cho‘lga chekingan, xotini va qizi raqiblari qo‘liga asir tushgan. Biroq Mahmud G‘aznaviyning asli maqsadi Aliteginni zaiflashtirish bo‘lgani sababdan biroz vaqtdan so‘ng Movarounnahrni tashlab chiqqan. Alitegin yana o‘z mulkini qaytarib olgan.

1032 yil xorazmshoh Oltuntosh sulton Mas’ud G‘aznaviyning topshirig‘iga ko‘ra, Alitegin yerlariga hujum qilib Buxoroni egallagan, biroq Dabusiya yaqinidagi jangda yarodor bo‘lib, vafot etgan. Xorazm qo‘shini sulh tuzib yurtiga qaytib ketgan.

2023-10-29 21:05:36